

## PUL KREDIT MUNOSABATLARI VA BANK ISHINING SAMARADORLIGI

*Toshkent Kimyo xalqaro universiteti*

*i.f.f.d. Ibroximov Ilxomjon Shavkatjon o‘g‘li*

*Mirobidova Dono Toir qizi*

*Toshkent Kimyo xalqaro universiteti,*

*Bank ishi fakulteti talabasi*

*mirobidovalono@gmail.com*

**Annotatsiya:** Hozirgi globallashuv jarayonida, pul-kredit munosabatlari va bank ishinining samamradorligini oshirish muhim ahamiyat kasb etadi. Pul-kredit siyosati va bank faoliyati birgalikda makroiqtisodiy barqarorlikni ta’minlash, inflyatsiya darajasini nazorat qilish hamda aholining moliyaviy farovonligini oshirishga xizmat qiladi. Ushbu vositalar bir-biriga ta’sir ko‘rsatib, iqtisodiy muhitni barqarorlashtirishga va rivojlantirishga o‘z hissasini qo‘sadi. Ushbu maqolada pul-kredit munosabatlari va bank ishini samaradorligini oshirishga qaratilgan ilmiy-texnologik ishlar bilan bayon qilingan.

**Kalit so‘zlar:** Pul, kredit, globallshuv, bank ishi, valyuta ayriboshlash, pul oqimlari, omonatlar, iqtisodiy o‘sish.

**Аннотация:** В современном процессе глобализации важно повысить эффективность денежно-кредитных отношений и банковского дела. Денежно-кредитная политика и банковская деятельность в совокупности служат обеспечению макроэкономической стабильности, сдерживанию уровня инфляции и повышению финансового благосостояния населения. Эти инструменты влияют друг на друга и способствуют стабилизации и развитию экономической среды. В данной статье описаны денежно-кредитные отношения и научно-техническая работа, направленная на повышение эффективности банковской деятельности.

**Ключевые слова:** Деньги, кредит, глобализация, банковское дело, обмен валюты, денежные потоки, сбережения, экономический рост.

**Abstract:** In the current process of globalization, increasing the efficiency of monetary relations and banking is of great importance. Economic policy and banking activities together serve to ensure macroeconomic stability, control the level of inflation, and increase the financial well-being of the population. These tools, interacting with each other, contribute to stabilizing and developing the economic environment. This article describes scientific and technological work to increase the efficiency of monetary relations and banking.

**Keywords:** Money, credit, globalization, banking, currency exchange, cash flows, deposits, economic growth.

### Kirish.

“O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki to‘g‘risida”gi Qonunga muvofiq, pul-kredit siyosatini ishlab chiqish va amalga oshirish Markaziy bankning asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi.

Markaziy banklar pul-kredit siyosatidan iqtisodiy tebranishlarni boshqarish va narxlar barqarorligini ta’minlash uchun foydalanadilar. Bu siyosatning asosiy maqsadi inflyatsiyani past va barqaror darajada ushlab turishdir. Rivojlangan mamlakatlarda markaziy banklar ko‘pincha inflyatsiyaga nisbatan aniq maqsadlarni belgilaydilar, bu ularga iqtisodiy barqarorlikka erishishda yordam beradi. So‘nggi yillarda ko‘plab rivojlanayotgan mamlakatlar ham inflyatsiyani boshqarish tizimiga o‘tishni boshlamoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-5877-sonli “Inflyatsion targetlash rejimiga bosqichma-bosqich o‘tish orqali pul-kredit siyosatini takomillashtirish to‘g‘risida”gi farmoniga asosan inflyatsiya bo‘yicha doimiy maqsad (target) 5 % etib belgilangan va ushbu maqsadga erishish vazifasi Markaziy bank zimmasiga yuklatilgan. Markaziy bank tomonidan inflyatsion targetning ta’milanishi aholi va tadbirkorlarning daromadlari va jamg‘armalarining xarid qobiliyatini saqlaydi, ularga uzoq muddatli xarajatlarini rejalashtirish imkonini beradi hamda barqaror va inklyuziv iqtisodiy o‘sishga qulay sharoitlarni yaratadi.

Pul-kredit siyosati odatda markaziy bank tomonidan pul taklifini tartibga solish orqali amalga oshiriladi. Buning uchun bank ochiq bozorda qimmatli qog‘ozlarni sotib olish yoki sotish orqali iqtisodiyotdagi pul miqdorini nazorat qiladi. Ushbu ochiq bozor operatsiyalari qisqa muddatli foiz stavkalariga ta’sir ko‘rsatib uzoq muddatli stavkalar va iqtisodiy faoliyatni shakllantiradi. [1]

### Metod


O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki 2020-yildan boshlab pul-kredit siyosatini samaradorligini oshirishga inflyatsion targetlash rejimida ish olib bormoqda va hozirgi kunga qurar yuqori natijalarga erishilb kelinnmoqda.

Pul-kredit siyosati markaziy banklar tomonidan pul taklifini, foiz stavkalarini va umumiyligi iqtisodiy sharoitlarni nazorat qilish uchun qo‘llaniladigan harakatlar va strategiyalarni o‘z ichiga oladi. [2] Pul-kredit siyosatining asosiy maqsadlari inflyatsiya darajasini ushlab turish, yangi ish o‘rinlari yaratishni qo‘llab-quvvatlash va barqaror iqtisodiy o‘sishga yordam berishdir. Markaziy banklar iqtisodiyotni boshqarish uchun foiz stavkalarini sozlash, rezerv talablarini belgilash va ochiq bozor operatsiyalarini o‘tkazish kabi vositalardan foydalanadilar. Bu siyosat ekspansion, o‘sishni rag‘batlantirish yoki pul massasini cheklash orqali inflyatsiyani cheklash uchun qisqaruvchi bo‘lishi mumkin.

Pul-kredit siyosati strategiyalari foiz stavkalarini qayta ko'rib chiqish va bank majburiy zaxiralarini o'zgartirishni o'z ichiga oladi hamda bu siyosatni amalga oshirishda uch strategiyadan, ya'ni: zaxira talablari, diskont stavkasi va ochiq bozor operatsiyalaridan foydalilaniladi. [2]

### Natijalar

O'zbekistonda 2023-yilda nisbatan qat'iy moliyaviy sharoitlar saqlanib qoldi. Tashqi sektordagi xatarlar bo'yicha kutilmalarning yomonlashishi, shuningdek xalqaro moliya bozoridagi yuqori o'zgaruvchanlik ta'sirida moliyaviy sharoitlarning qat'iy lashishi kuzatildi. Bank tizimida moliyaviy barqarorlik saqlanib qolindi. (1-rasm)




Manba: Markaziy bank hisob-kitobi.

### 1-rasm. O'zbekiston moliyaviy sharoitlar indeksi

Bank tizimining jami hamda I darajali kapital monandlilik koeffitsiyentlarining pasayishiga qaramasdan, mazkur ko'rsatkichlar o'rnatilgan minimal talablardan yuqori shakllandi. So'nggi yillarda bank tizimida shakllangan nisbatan yuqori stress darajasi 2023-yil yakunida sezilarli pasaydi. Bank tizimidagi zaifliklar joriy holatini ifodalovchi moliyaviy stress indeksi pasayuvchi dinamikani ko'rsatdi. Ushbu davrda, xalqaro moliya bozorlarida kuzatilgan tendensiyalarga qaramay, pul bozori va bank sektorida kuzatilgan ijobiy o'zgarishlar stress indeksining pasayishiga sabab bo'ldi. (2-

rasm)



## 2-rasm. Banklararo REPO bozori

Pul-kredit siyosati va bank ishinig samaradorligini yanda rivojlantirish mamlakat iqtisodiy barqarorligi va moliyaviy tizimning rivojlanishi uchun hozirgi kunda muhim yo‘nalishlardan biri hisoblanadi. So‘nggi yillarda ushbu sohada amalga oshirilgan chora-tadbirlar iqtisodiy o‘sishni qo‘llab-quvvatlash, inflyatsiyani nazorat qilish va banklarning barqaror faoliyatini ta’minlashga qaratilgan. Quyida ushbu yo‘nalishda bajarilgan asosiy ishlar keltirilgan:

**1. Markaziy bank siyosatining takomillashtirilishi.** Markaziy bank pul-kredit siyosatini takomillashtirish maqsadida foiz stavkalari, valyuta rezervlari va likvidlik boshqaruvi kabi vositalarni samarali qo‘llamoqda. Foiz stavkalarini o‘z vaqtida moslashtirish orqali iqtisodiyotdagi o‘zgarishlarga moslashish va inflatsiyani nazorat qilish imkonini yaratilmoqda. Ushbu siyosat iqtisodiy o‘sishni ta’minlash bilan birga barqaror inflyatsiya darajasini saqlashga yordam beradi.

**2. Bank tizimini va faoliyatini isloh qilish.** Bank tizimini va faoliyatini isloh qilish, moliyaviy sektor barqarorligini oshirish maqsadida banklarga qo‘yiladigan nazorat va talablar kuchaytiriladi. Shu jumladan, tijorat banklariga kapital talablarini oshirish orqali ularning moliyaviy davomiyligi yaxshilandi. Bu banklarning qarz berish imkoniyatlarini kengaytirib, iqtisodiyotga likvidlik yetkazib berish darajasini oshirdi.

**3. Texnologiyalarni joriy etish va raqamli bank xizmatlari.** Bank sohasidagi xizmatlarni amalga oshirishda zamonaviy texnologiyalarni qo‘llash, **ochiq bozor**

**operatsiyalarini kengaytirish va banklar faoliyatining xalqaro standartlarga moslashtirilish bank faoliyati samaradorligi uchun xizmat qiladi.** [3,4]

**Muhokama:**

Pul-kredit siyosati operatsion mexanizmi mustaqil ravishda ishlab chiqiladi va takomillashtirib boriladi. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 151-moddasi bilan O‘zbekiston Markaziy bankining pul-kredit siyosatini ishlab chiqish va amalga oshirishda mustaqilligi belgilangan. Shu asosida, Markaziy bank inflyatsiya targetiga erishishda pul-kredit siyosati instrumentlari va yondashuvlarini mustaqil tanlash huquqiga ega. Bunda foiz stavkalarini boshqarish, ochiq bozor operatsiyalarini amalga oshirish, majburiy zaxiralar me’yorlarini o‘zgartirish va iqtisodiy sharoitlardan kelib chiqib boshqa choralar ko‘rilishi mumkin. Olib borilayotgan pul-kredit siyosatining operatsion mexanizmi asosiy stavka va

Pul-kredit munosabatlarining maqsadi iqtisodiyotdagi pul oqimlarini boshqarish, foiz stavkalarini tartibga solish va inflyatsiyani nazorat qilish orqali iqtisodiy barqarorlikni ta’minlashdan iborat. Pul-kredit siyosati vositalaridan foydalanish orqali iqtisodiy tebranishlarni boshqarish va o‘sishni qo’llab-quvvatlashga erishiladi. Masalan, iqtisodiy pasayish davrida Markaziy bank foiz stavkalarini pasaytirib, iqtisodiyotga qo’shimcha likvidlik kiritadi, bu esa investitsiyalarni rag’batlantiradi. [4]

Banklar esa Markaziy bank siyosatining asosiy ijrochilari sifatida pul-kredit munosabatlarini iqtisodiyotga yetkazadi. Ular iqtisodiyotning “pul ildizi” vazifasini bajarib, korxonalar va aholiga kreditlar ajratish, depozitlar qabul qilish va to‘lov xizmatlarini amalga oshirish orqali iqtisodiy faoliyatga o‘z hissasini qo’shadi. Bank samaradorligi bevosita Markaziy bankning siyosati samaradorligiga bog‘liq bo‘lib, banklarning qarz berish imkoniyatlari, likvidlik darajasi va foiz stavkalari iqtisodiyotga ta’sir qiladi. [4] Agar bank tizimi samarali ishlamasa, pul-kredit siyosati qanchalik kuchli bo‘lmasin, uning iqtisodiy ta’siri sezilarli darajada kamayishi mumkin.

Markaziy bankning pul-kredit siyosati tijorat banklariga turli yo‘nalishlarda ta’sir ko‘rsatadi. Masalan, foiz stavkalarini oshirganda pul-kredit siyosati qattiqlashadi, bu esa banklar tomonidan ajratiladigan kreditlar hajmini kamaytiradi, chunki qarz olish xarajati oshadi. Bu holat iqtisodiy faollikka salbiy ta’sir qilishi mumkin. Aksincha, foiz stavkalari pasaytirilganda, banklar o‘z qarz berish faoliyatini kengaytirib, iqtisodiy rivojlanishni qo’llab-quvvatlaydi. Bu o‘zgaruvchan sharoitlar banklardan tezkor moslashuvchanlik va samaradorlikni talab qiladi.

**Xulosa**

Xulosa qilib aytganda, pul-kredit munosabatlari va bank ishining samaradorligi iqtisodiy barqarorlik va rivojlanishni ta’minlash uchun asosiy omillar hisoblanadi. Biz bank ishining samaradorligini oshirish orqali moliyaviy resurslar iqtisodiyotga samarali yetkazilib, tijorat banklarining moslashuvchanligi ortadi, bu esa iqtisodiy o‘zgarishlarga tezkor javob berishni ta’minlaydi. Samarali ishlayotgan bank tizimi esa

pul-kredit siyosatining ijobiliy ta'sirini kuchaytiradi, bu o'z navbatida iqtisodiy o'sish va barqarorlikka zamin yaratadi. Shu bilan birga, raqamli texnologiyalar, xalqaro standartlarga moslashish va risklarni boshqarish kabi chora-tadbirlar bank ishining samaradorligini oshirishda katta ahamiyatga ega.

Umuman olganda, pul-kredit siyosati va bank faoliyati birgalikda harakat qilib, iqtisodiy rivojlanish va aholi farovonligini ta'minlash uchun asosiy kuch bo'lib xizmat qiladi. Kelajakda ushbu yo'naliishlarda islohotlarni davom ettirish va yangi texnologiyalarni keng joriy qilish iqtisodiy barqarorlik va rivojlanish uchun yangi imkoniyatlarni ochadi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 18.11.2019 yildagi PF-5877-sonli "Inflyatsion targetlash rejimiga bosqichma-bosqich o'tish orqali pul-kredit siyosatini takomillashtirish to'g'risida"gi farmoni
2. Jahon moliyaviy barqarorligining muammolari: o'zaro bog'liqlik, kredit riski, biznes tsikli va bozor ishtirokchilarining roli: <https://elibrary.uz> 2-3-bet
3. Bank va moliya jurnali – 2020, Moliya va Bank ishi jurnali
4. «Bozor, pul va kredit jurnali N\_1-12 2023-yil 34-35 betlar.
5. HD Sherman, F. Gold "Bank filiali faoliyati samaradorligi: ma'lumotlarni o'rash tahlili bilan baholash, *Bank va moliya jurnali*, 2022-yil, 297-316 - betlar
6. International Economics theory & policy eleventh edition global edition Paul R. Krugman Princeton University Maurice Obstfeld University of California, Berkeley Marc J. Melitz Harvard University. 2023-y, 124-125
7. <https://cbu.uz/uz/monetary-policy/>
8. <https://www.researchgate.net/publication>
9. <https://uniwork.buxdu.uz/resurs/>